

GLOBAL MOLIYAVIY INQIROZLARNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Xoliyorov Murodjon Azim o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi 70411302 - "Biznesni boshqarish"

Moliya va moliyaviy texnologiyalar mutaxassisligi 22-18-guruhi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada global moliyaviy inqirozlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Inqiriz, moliyaviy inqiroz, global moliyaviy inqiroz, omil.

Global moliyaviy inqirozlarning rivojlanishiga bir qator omillar ta'sir qiladi va ularni tahlil qilish uni paydo bo'lishini aniqlash uchun zarurdir. Chunki, jahonning yetakchi davlatlarida amalga oshirilayotgan inqirozga qarshi choralar inqirozni yumshatish va bosqichma-bosqich chiqib ketishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, tadqiqotlarda inqirozga qarshi choralar quyidagi guruhlariga ajratiladi [1].

- moliya tizimini qo'llab-quvvatlash va sog'lomlashtirish;
- alohida kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash;
- aholining yakuniy talabini rag'batlantirish;
- davlat xarajatlarini oshirish.

Ayrim mamlakatlarda moliyaviy inqirozni rivojlanishiga amalga oshiriladigan moliyaviy siyosat ta'sir qiladi. Xususan, Qozog'istonning zamonaviy rivojlanishi yoki globallashtirish va jahon moliyaviy inqirozi sharoitida moliyaviy siyosatning asosiy vazifasi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni moliya mexanizmi orqali amalga oshirish belgilangan [2]:

- iqtisodiyotni dinamik iqtisodiy o'sish va barqarorlik jihatlariga muvofiq samarali va barqaror rivojlantirish;
- tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va davlat ulushini optimallashtirish bilan mulkni isloh qilish orqali milliy iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish asosida iqtisodiy hayotni barqarorlashtirish;
- respublika iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashuvini amalga oshirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish va ishlash jarayonini faollashtirish;
- ijtimoiy dasturlarni qabul qilish va ularni amaliyotga qo'llash ishlarini uzluksiz moliyalashtirish.

Asosiy omil mamlakatlarning milliy iqtisodiyotini isloh qilishga qaratilishi lozim. Bu holat, ya'ni inqiroz davom etayotgan davrida milliy iqtisodiyotni ustuvor vazifasi bo'lib, bozor ishonchini qayta tiklash, nobozor sektori, birinchi navbatda renta munosabatlariga ta'sir

qiluvchi hududlarni qisqartirish va raqobat muhitini rivojlantirishdan iborat bo'ladi. Milliy iqtisodiyotni energiya-xom ashyo yo'lidan innovatsion yo'nalishga o'tkazish samaradorligi aholi ijtimoiy guruhlari, hokimiyat va biznes o'rtasidagi o'zaro aloqalarni integratsiyasi belgilanadi. Shuningdek, korxonalar raqobatbardoshligi va salbiy ta'sirlarni yumshatish maqsadida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, mahsulot tannarxini arzonlashtirish va tranzaksiya xarajatlarini tejash chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Ayniqsa, mazkur chora-tadbirlar yo'nalishlariga moliyaviy nochor korxonalarga imtiyozli kredit berish, bankdan olgan kreditlarini so'ndirishga imtiyoz yaratish, mahsulotlarning energiya va boshqa xom ashyo sig'imini pasaytirishni rag'batlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarini mahalliyashtirish dasturlariga kiritish hamda ularning mahsulotiga bo'lgan ichki talabni oshirish chora-tadbirlari belgilangan. Ishlab chiqarishni yangi mahsulotlar va faoliyat turlari bilan kengaytirish hisobiga bevosita diversifikatsiyalashni amalga oshirish, mahsulotlar va xizmatlar assortimenti va sifatini yanada oshirish, ulardagi qo'shimcha qiymat sig'imini oshirish, sotish kanallari va bozorlarini kengaytirish hamda bandlikni ta'minlash lozim.

Biroq, bugungi kunga kelib, jahon iqtisodiyoti va bozorlari jiddiy omillar ta'siriga uchramoqda. Olib borilgan tadqiqotlarda ushbu omillar tarkibiga takrorlanuvchi va ta'sir doirasi keng bo'lgan moliyaviy va valyuta inqirozlari, rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy sektorni zaifligi, offshor moliyaviy markazlar sonining ko'payishi, xususiy kapital hajmiga nisbatan rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam ko'rsatishda xalqaro institutlarni cheklangan imkoniyatlari, xalqaro investorlar yangi turlarini paydo bo'lishi, investitsiya institutlari, moliyaviy vositalar va operatsiyalar hajmining ko'payishi kabi omillar kiritilgan [3]. Mazkur omillar xalqaro moliya tizimini isloh qilish zaruratini taqozo qiladi.

Ayniqsa, tizimli va omilli tahlil usullaridan foydalanish inqirozning hukmron omili, shuningdek, global rivojlanishga tahdid sifatida qaraladigan va inqiroz jarayonlarini kuchayishiga olib keladigan omillar ro'yxatini shakllantirish imkonini beradi. Undagi asosiy omil to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy, siyosiy va harbiy to'qnashuvlar, shu jumladan global mojarolar potensialiga ega bo'lgan qadriyatlarining o'sib borayotgan tafovuti, iqtisodiy yetakchilik va jahondagi iqtisodiy o'zgarish bilan bog'liq muammolar majmui sifatida tavsiflanadi [4].

Ushbu omil birlamchi xususiyatga ega bo'lib, uning ta'siri natijasida zamonaviy dunyoning boshqa qarama-qarshiliklari kuchayadi (1-jadval).

1-jadval Moliyaviy inqirozning paydo bo'lish omillari unsurlari

Ko'rinish sohasi	Omllarni mazmuni
Resurs	Iqtisodiy rivojlanishda yetakchi bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi hayot sifati darajasidagi farq va resurslardan foydalanish uchun kurashish
Moliyaviy	Jahon moliyaviy tizimining beqarorlashishi, "moliyaviy pufakchalar" va cheksiz emissiyani shakllantirish
Mehnat taqsimoti va jahon iqtisodiyoti tarkibi	Transmilliy korporatsiyalar tomonidan milliy va xalqaro bozorlarni monopollashtirish, globalizm va mustaqillikka erishish
Sivilizatsiya	Irqiy, etnik, gender va sivilizatsiya darajasida tarixiy da'volarni qarshi olish va taqdim etish
Axborot	AQSh, uning ittifoqchilari va transmilliy korporatsiyalar tomonidan telekommunikatsiyalar, raqamlashtirish, buyumlar interneti, axborot texnologiyalari vositalari, biznes hamjamiyati va aholisining global axborot nazorati
Ekologik	Atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy muhit bosimi
Aholi hayoti va salomatligini muhofaza qilish	Global miqyosda pandemiyaning avj olishi
Madaniy xulq-atvor	Madaniyatning tarqalishi va iste'molchilik xohishlari
Integrallashuv	To'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy, siyosiy va harbiy to'qnashuvlar, jumladan global qadriyatlarining o'sib borayotgan tafovuti, iqtisodiy yetakchilik va jahon iqtisodiy tuzilmasi o'zgarishi natijasidagi muammolar to'plami

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, ko'rib chiqilayotgan sohalarning har birida integral omil o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Tabiiy resurslardan foydalanish uchun kurashish ularning kamayishi va o'sib borayotgan iqtisodiyotni ortib borayotgan ehtiyojlari bilan bog'liq bo'ladi. Tanqis resurslar ro'yxatiga energiya tashuvchilar va toza suv hamda doimiy ravishda kengayib boradi. Ko'rib chiqilgan sohalarning har birida u o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Shularni hisobga olgan holda, moliyaviy inqiroz quyidagi hodisalarni o'z ichiga oladi:

- valyuta kurslarining qulashi;
- foiz stavkalarining keskin o'sishi;
- banklar tomonidan depozitlarni ommaviy ravishda olib qo'yish va hisobvaraqlardan naqd pulni cheklash (bank inqirozi);
- moliyaviy vositalar yordamida kompaniyalar o'rtasidagi me'yordagi hisob-kitob tizimini yo'q qilish (hisob-kitob inqirozi);
- pul muomalasi inqirozi;
- qarz inqirozi.

Global moliyaviy iqtisodiy ta'sirina aniqlashda yana bir muhim muammo bo'lib, rag'batlantiruvchi fiskal siyosatning "vaqtinchalik" bo'lishini ta'minlash hisoblanadi. Agar inqiroz davrida soliqlar kamaytirilsa yoki davlat yangi xarajatlar majburiyatlarini o'z zimmasiga olgan bo'lsa, unda ko'tarilish bosqichiga o'tishda bunday o'zgarishlarni bekor

qilish murakkab bo'ladi. Shu bois, fiskal siyosatning ayrim rag'batlantiruvchi choralari to'g'risida qaror qabul qilinganda hukumat kelajakda ularni qisqartirish imkoniyatlarini sinchkovlik bilan tahlil qilishi lozim. Inqirozga qarshi fiskal siyosat samaradorligining eng muhim omili bo'lib ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yoki real sektor korxonalarini rag'batlantirish chora-tadbirlarning maqsadga muvofiqligi bilan belgilanadi.

Fiskal siyosat bilan bog'liq va tezkor yechimlarni talab qiladigan mamlakat moliya bozoridagi vaziyatni barqarorlashtirish uchun pul-kredit va fiskal siyosat choralaridan foydalanish kabi qator vazifalarni hal qilish lozim. Ushbu muammoni hal qilish asosan pul-kredit siyosati choralari bilan ta'minlanadi. Ammo, fiskal choralar muhim zaxiralar (jumladan neft va gaz fondlari mablag'lari) mavjud bo'lganda qo'llanilishi mumkin. Biroq, moliya sektoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan va salbiy o'rta va uzoq muddatli oqibatlariga olib kelmaydigan maqbul chora-tadbirlar va budjet mablag'lari miqdorini aniqlash masalasi e'tiborga olinishi lozim. Uning tarkibiga inflyatsiya, budjet taqchilligining keskin o'sishi va boshqalar kiradi. O'tkir ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun fiskal siyosat choralaridan foydalanish lozim.

Jahon moliyaviy inqirozi, iqtisodiy beqarorlik va iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi sharoitida inflyatsiyaning yetarlicha yuqori darajasi turli ijtimoiy muammolarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu bir tomondan, fuqarolar turmush darajasining pasayishi va ishsizlikning o'sishi bilan belgilansa-da, boshqa tomondan esa ijtimoiy soha tarmoqlari rivojlanishining sekinlashishi bilan namoyon bo'ladi. Bu yerda rag'batlantiruvchi siyosat choralarini tanlash muhim ahamiyat kasb etib, yordamga muhtoj bo'lgan kishilardan yordam olinadi va budjet xarajatlari esa inflyatsiyaning qo'shimcha o'sishiga olib kelmaydi. Turg'unlik sharoitida iqtisodiyot real sektorini qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratish ushbu sektorda keskin pasayish va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni oldini olish uchun davlat tomonidan rag'batlantiruvchi choralarni ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Xulosa shuki, global moliyaviy inqirozlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashda tanlanadigan strategiya inqirozli vaziyatlardan butunlay qochish imkonini bera olmaydi. Moliyaviy inqiroz sharoitida ushbu strategiyalarni qo'llashga zarurat tug'iladi. Shu bilan birga, inqiroz ta'sirini aniqlash uchun kompensatsiya choralari to'plamiga asoslangan inqirozga qarshi sanoat siyosatidan samarali foydalanish va uni zamonaviylashtirishga qaratilgan rag'batlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish dasturini ishlab chiqish lozim. Natijada, uzoq muddatli siyosatga o'tish ta'minlanadi. Ushbu ishlarda davlat tomonidan modernizatsiyalash siyosatini amalga oshirishga e'tibor qaratiladi. Bu borada innovatsiyalarni soliq rag'batlantirishni kuchaytirish bilan birga ularning rentabelligini pasaytirish va kapitalning yangi sanoat tarmoqlariga oqishini rag'batlantirish uchun texnologik bo'lmagan sohalarga soliq solishni ko'paytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO ‘UXATI:

1. Мировая экономика: выход из кризиса. / Под ред. Г.И.Мачавариани. - М.: ИМЭМО РАН, 2010. - 13-14 б.
2. Сартанова Н.Т. Государственные финансы: Учебное пособие. - Костанай: КГУ им. А.Байтурсынова, 2017. – с. 42.
3. Ataniyazov J.X., Xamidova F.A., Pulatova M.B. Xalqaro moliya institutlari. O‘quv qo‘llanma. - T.: “Iqtisod-moliya”, 2020. - 8 b.
4. Крупнов Ю.А., Старовойтов В.Г., Трошин Д.В. Факторы глобального кризиса. // Известия Юго-Западного государственного университета. Серия: Экономика. Социология. Менеджмент, 2021, 11(6). - с. 10-21.

